

TA'LIMDA SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYA DARSLARNING AHAMIYATI

Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li

ADPI Tabiiy fanlar fakulteti biologiya o'qituvchisi

Abdulaxatova Dilfuza Abdusamat qizi

ADPI Tabiiy fanlar fakulteti kimyo yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada integratsiya haqida umumiy tushuncha va uning turlari, integratsiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Ключевые слова: *Интеграция, образование, предмет, тема, процесс.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются общее понятие интеграции и ее виды, роль и значение интеграции в образовательном процессе.*

Abstract: *This article covers the general concept of integration and its types, the role and importance of integration in the educational process.*

Kalit so'zlar: *Integratsiya, ta'lim, predmet, mavzu, jarayon.*

Key words: *Integration, education, subject, topic, process.*

Dunyoda o'quvchilarning zamonaviy, jahon talablari asosida bilim olishlarida tabiiy fanlarning integrativ mazmunini takomillashtirish, nazariy va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilar uchun kimyo, fizika, geografiya, tibbiyot fanlarining o'zaro aloqadorligiga asoslangan integrativ mazmuni va uni o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan modelini ishlab chiqish, mavjud didaktik materiallar va tavsiyalarni takomillashtirish zaruriyati yuzaga keldi.

Jahon miqyosida 2030-yilgacha qabul qilingan barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasida "Barqaror taraqqiyotga erishishda tabiiy fanlarning boshqa sohalar bilan chambarchas bog'liq amaliy, qulay va barqaror yechimga egaligi" ta'kidlangan. Ta'limni globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tajribasida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, ularni STEAM yondashuvi asosida integrativ o'qitishni takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'quvchilarga tabiiy fanlar, jumladan kimyo fanini o'qitishda integrativ yondashish, o'quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida o'zlashtirish jarayonida ularning nazariy va amaliy kompetentligini shakllantirishda muhim ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash, o'quvchilarning tabiiy fanlardan nazariy va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning me'yoriy asoslari yaratish, ularning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda integrativ yondashuvni talab etadi. Unga ko'ra kimyo o'quv fani bo'yicha amalda qo'llanilayotgan fan dasturi va unga muvofiq darslik hamda o'quv qo'llanmalarining integrativ mazmuni

va uni o'qitish metodikasini ilg'or xorijiy mamlakatlarning ilmiy-metodik va amaliy tajribalari asosida takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan mamlakatimizda biologiya o'quv fanidan mavjud Davlat ta'lim standartlari, fan dasturlari va unga mos darslik, qo'llanmalarning integrativ mazmunini qayta ko'rib chiqish va ular asosida integrativ o'qitish texnologiyalarini yanada takomillashtirishni toqazo etadi.

"Integratsiya" tushunchasi (lot. integer – butun, yaxlit) ilgari turli bo'laklarga bo'lingan komponentlarni yaxlit birlashuv jarayoni; unga qarama-qarshi bo'lgan differentsiatsiya, bo'linish bilan dialektik bog'liqlikdagi jarayondir. Integratsiya va differentsiatsiya jarayenlari bir-biri bilan mavjud bo'la olmaydi, ketma-ket kelmaydi. Har bir jarayon boshqasida va boshqasi orqali namoyon bo'ladi.

Mavzulararo integratsiya – bir predmet ichidagi bilimlarni tizimlashtirish yangi qonuniyatlarni ochish, olamni bir butunlikda, yaxlit tasavvurga ega qilish jarayonida uzuq-yuluq ma'lumotlarni jamlab, bir tizimga qo'yishdan iborat. Bu turdagi integratsiya alohida o'quv predmetini qamrab oladi. O'quv materiallari katta bloklarga jamlashtiriladi, natijada predmetning mazmuniy tuzilishini o'zgartirib yuboradi. Bunday holatda integratsiyalashgan mazmun axborotlar sig'imini yanada kattalashtiradi. Natijada axborotlar sig'imini alohida turkumlarga ajratishga to'g'ri keladi. STEAM ta'limida mavzulararo integratsiya eng asosiy o'rinni egallaydi.

Predmetlararo integratsiya – bir o'quv fanining qonuniyatlari, tamoyillari, nazariy jihatlarini boshqa bir o'quv predmetini o'rganishda qo'llanishi bilan yuzaga chiqadi. Integratsiyaning bu turida tizimlashtirilgan mazmun o'quvchilarning ongida olamni yaxlit bir butunlikda namoyon qiladi. Bu esa predmetlararo umumiy ilmiy tushunchalar, kategoriyalar va yondashuvlarda o'z aksini topadi, natijada yangi bilimlarni paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning mujassam bilim olishiga erishiladi. Predmetlararo integratsiya mavzulararo integratsiyani sezilarli darajada boyitadi.

Transpredmetli integratsiya – yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlikka ega bo'lib, bu esa integratsion darslarni tayyorlashda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Transpredmetli integratsiya deganda, umumiy o'rta ta'limning ta'lim sohalari tarkibini ob'yektlararo integratsiyani, shuningdek, qo'shimcha ta'limni o'z ichiga olgan yaxlit birlashtirishni nazarda tutadi. Bunday holda tahlil mavzusi har xil ilmiy fanlarda mavjud bo'lgan ko'p qirrali ob'yektlardir. Bunday bilish jarayonida barcha amaliy jarayonlar, shu jumladan, barcha analizatorlar (vizual, eshitish, sezgir, xushbo'y...) ishtirok etadi, bu esa bolaning atrofidagi voqelikni bilishda shartli aloqalarni shakllantirishning kuchliligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF4947- son farmoni 2017 yil

2. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik. Toshkent. Tafakkur Bo'stoni – 2012

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008.